



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th December, 2024

YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH VA QO'LLAB QUVATLASH

Sulaymanova Diyora Baxadirovna,

Mustafoyeva Munisa Yaxshilik qizi,

Maxmudova Dilrabo Xolboyevna

Samarqand Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi
o'qituvchilari

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashni dolzarbligi, ularning kuchli va zaif tomonlari yoritib o'tilgan. Shuningdek, sohani rivojlanshiga ta'sir etuvchi muammolar, omillar bayon etilgan. Mavzuga doir xulosalar berilgan va tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar tadbirkorligi kuchli tomonlari, yoshlar tadbirkorligining zaif tomonlari, hamkorlar va homiyalar bilan o'zaro hamkorlik, axborot siyosati, moliyalashtirish, ta'lif olish tadbirlari, tadbirkorlarning kommunikatsion aloqasi, to'liq huquqiy qonunchilik bazasining takomillashmaganligi.

DEVELOPMENT AND SUPPORT OF YOUTH ENTREPRENEURSHIP

Abstract: The article highlights the relevance of developing and supporting youth entrepreneurship, their strengths and weaknesses. Also, problems and factors affecting the development of the industry are described. Conclusions on the topic are given and appropriate recommendations are developed.

Keywords: strengths of youth entrepreneurship, weaknesses of youth entrepreneurship, cooperation with partners and sponsors, information policy, financing, educational activities, communication of entrepreneurs, incomplete legal framework.

Bugungi kunda respublikamizda yoshlarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga ehtiyoj ortib bormoqda. Tadbirkorlikni kompleks rivojlantirish va



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th December, 2024

yoshlarni tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga faol jalb qilish bo'yicha joylarda maqsadli dasturlar amalga oshirilmayapti, hamda zarur infratuzilma yaratilmagan, bu esa yangi ish o'rirlari yaratishning eng muhim sharti hisoblanadi. Joylarda davlat organlari va tashkilotlarining mansabdor shaxslari yoshlarning tadbirkorlik savodxonligini oshirishga, ularga biznes tashkil etish va yuritish ko'nikmalarini singdirishga hali ham befarq va beparvo munosabatda bo'lmoqda. Yoshlar tadbirkorligini ijtimoiy tadqiq etish hanuzgacha zamonaviy jamiyat hayotining eng kam rivojlangan sohalaridan biri bo'lib qolmoqda hamda yoshlar tadbirkorligi muammolari amaliyatda yetarlicha o'rganilmagan.

Yoshlar tadbirkorligi ijtimoiy institut sifatida hali shakllanish bosqichida va u qonunchilik bilan tartibga solishni talab qiladi. Yoshlar tadbirkorligi haqiqatda mavjud bo'lishiga qaramay, u bugungi kungacha tegishli ijtimoiy-huquqiy maqomi to'la shakllangan emas. Mazkur muammo mavzuning dolzarbligini ifodalaydi.

Yoshlar tadbirkorligi ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida iqtisodiyotda alohida e'tiborga loyiqidir. Yoshlar tadbirkorligining tadbirkorlikning alohida segmenti sifatida ajratilishi tadbirkorlikning boshqa turlaridan farqli o'laroq, uning o'ziga xos xususiyatlari, kuchli va zaif tomonlariga ega ekanligi bilan izohlanadi. Yoshlar tadbirkorligining kuchli tomonlarini : innovatsiyalarga yuqori intilish, yuqori harakatchanlik, yondashuvlarning moslashuvchanligi, o'zgaruvchan sharoitlarga mos keladigan tezkor ko'nikmalar, yosh avlodning turli xil xavf-xatarlarga qarshi turish qobiliyatida, innovatsion yoshlar tafakkurida ko'rish mumkin. Yoshlar tadbirkorligining zaif tomonlarini: tajribaning kamligi, ishbilarmonlik obro'sining yo'qligi, moliyaviy qonunlar va mexanizmlardan foydalanishda amaliy ko'nikmalarning rivojlanmaganligi va o'ta zaifligi, byurokratik tuzilmalardan himoyalananmaganligida ko'rish mumkin. Bu xususiyatlar yoshlar tadbirkorligini alohida toifada yoritib, uni qo'llabquvvatlashning asosiy - kuchli tomonlarini shakllantirish va zaif tomonlarini bartaraf etish vazifalarini belgilab beradi. Ta'kidlash joizki, tadbirkorning iqtisodiy mas'uliyat, innovatsion xulq-atvori va ijtimoiy ahamiyatga ega yo'nalishini o'z ichiga olgan ijobiy imidjini shakllantirish tadbirkorlik faoliyatini shakllantirishning asosiy vazifasi bo'lib ko'rindi. Bozor munosabatlari tizimi o'z biznesini boshlash uchun tayyor yondashuvni talab qiladi. Bu borada ko'plab olimlar o'zlarining yondashuvlarini berib borganlar.



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th December, 2024

A.Kazantseva yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda quyidagilarni taklif qiladi:

- 1) Hamkorlar va homiyalar bilan o'zaro hamkorlik;
- 2) Axborot siyosati;
- 3) Moliyalashtirish;
- 4) Ta'lim olish tadbirlari;
- 5) Tadbirkorlarning kommunikatsion aloqasi.

Yoshlar tadbirkorligini ushbu model bo'yicha rivojlantirish uchun A.Kazantseva "jamoat tashkilotlari va davlat organlarining birqalikdagi sa'y-harakatlari bilan turli darajadagi mexanizmlarni topish va amalga oshirish kerak" deb hisoblaydi. Yoshlar tadbirkorligining ijtimoiy ifodasi hech qanday holatda "yosh yakka tartibdagi tadbirkor" va "yoshlar korxonasi" tushunchalari bilan cheklanib qolmasligi kerak. Bu ancha kengroq va tashabbuskor yoshlarning mustaqil tadbirkorlik faoliyatini (jumladan, ijtimoiy xulq-atvor turini) nazarda tutadi.

Bularning barchasiga qo'shimcha ravishda, yoshlar tadbirkorligini bir qator ijtimoiy ahamiyatga ega funktsiyalarini (yoshlarga oid va ijtimoiy siyosat sohalariga xos) bajarishga qodir ekanligini ko'rsatadi. Masalan, xususiy mulk va tadbirkorlik institutiga ijobiy munosabatda bo'lgan millatning yangi mentalitetini rivojlantirish; yosh avlodning iqtisodiy faoliyatga intilishini oshirish; yoshlar bandligini ta'minlash; yoshlarni kasbga yo'naltirish va kasbga o'rgatish ishlarini amalga oshirish; yoshlarning yetarli darajada yuqori ta'lif salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularning o'zini-o'zi anglashi va o'zini o'zi tan olish uchun imkoniyatlar yaratish; yosh avlodning turmush darajasini oshirish; yoshlarning faol ijtimoiy pozitsiyasini rivojlantirish; yoshlarning ijtimoiy himoyasini oshirish kabilarni shular jumlasiga kiritish mumkin.

Yoshlar tadbirkorligini shakllantirish va rivojlantirish yo'lida bugungi kunda qator jiddiy muammolar mavjud bo'lib, ularni hal etish davlatimiz, ayniqsa, viloyat hokimligining jiddiy e'tiborini talab qiladi. Yoshlar tadbirkorligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mamlakatimiz hududlarida yoshlarni ushbu sohaga jalb qilish bo'yicha chora-tadbirlar tizimini shakllantirish va amalga oshirish orqali tadbirkorlik sohasidagi yoshlar faolligini rag'batlantirishga asoslanadi. Yoshlar tadbirkorligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th December, 2024

1. Yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalg etish.
 2. Kichik biznes yo'nalishlarida yoshlarni ish bilan ta'minlashga ko'maklashish.
 3. Yosh tadbirkorlarning innovatsion loyihalarini ilgari surishda ko'maklashish.
 4. Yosh tadbirkorlik subektlarini moliyaviy va mulkiy qo'llab-quvvatlash.
 5. Yoshlar tadbirkorlik sub'ektlarining bilim darajasi va malakasini oshirishga ko'maklashish.
- Xulosa qilib aytganda Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash uchun quyidagi tashkiliy-iqtisodiy yo'llarni tavsiya etamiz:
- yangi boshlovchi tadbirkorlarga nisbatan davlat siyosatida ahamiyatli choratadbirlarni amalga oshirish
 - o'z biznesini yo'lga qo'yuvchilarni biznes faoliyatini yuritishga o'qitish, imtiyozlar va kredit kafolatlari taqdim etish;
 - yoshlar tadbirkorligini shakllantirish va rivojlantirish yo'lidagi ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish, ishlab chiqarishda biznes yuritish uchun maqbul va qulay shart-sharoitlarni yaratish bilan ularni kelajakdagi o'rta sinf sifatida qabul qilish;
 - yosh tadbirkorlarni ichki yoki tashqi motivatsiyasi yo'llari va usullarini kengaytirish;
 - yoshlar orasida "tadbirkorlar-muvaffaqiyatga intilayotgan ishbilarmonlar sifatidagi tafakkur"ni shakllantirish;
 - sohada "usta va shogird" tizimini rivojlantirish;
 - manfaatdor tomonlar(aholi, hukumat organlari, oliygohlar, tadbirkorlar)ning o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirish.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Xabibullayevich, U. L., Nabijanovich, B. D., & Ibragimovna, F. E. (2020). Increasing effectiveness of economic educationprocessis basis for the development of qualification of entrepreneurship. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 9(3), 210-215.
6. Казанцева А. Удачный старт молодых предпринимателей // Молодежь и общество. 2010. № 4. С. 4-28.



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th December, 2024

7. Казимов Г. Ю., Казимова Л. Л. Поддержка молодежного предпринимательства как фактор экономического развития России // Вестник СПИ. 2014. № 4 (12). С. 29.
8. Кочесокова Э. Ю. Исследование основных проблем и перспектив развития молодежного предпринимательства в РФ // Juvenis scientia. 2016. № 1. С. 50-51.
9. Эргашева, Ф. И. (2023). ЁШЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИЖОБИЙ МУҲИТИНИ ШАКЛАНТИРИШ. SPAIN" PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH", 14(1).